



FRAZEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xalimova Nilufar Abduxafizovna

*“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros
xalqaro universiteti mustaqil
izlanuvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarning tarjima qilishning nazariy asoslari xususida fikr yuritilgan. O‘zbek va ingliz tilidagi frazeologizmlar tarjimasini va ularda duch keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha ba‘zi fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Frazeologiya, frazeologizm, badiiy matn, A.V. Kunin, badiiy tarjima.

Abstract: This article discusses the theoretical foundations of translation of phraseological units. Some thoughts on the translation of phraseology in Uzbek and English and the difficulties and ways of overcoming them are presented.

Key words: Phraseology, phraseological units, artistic text, A.V. Kunin, literary translation.

Аннотация: В данной ситуации рассматриваются теоретические основы перевода фразеологизмов. Представлены некоторые мысли по поводу перевода фразеологии на узбекском и английском языках, а также трудности и пути их преодоления.

Ключевые слова: Фразеология, фразеология, богоугодный текст, А.В. Кунин, художественный перевод.

Frazeologiya tadqiqotlari sohasida amalda keng qo‘llaniladigan yo‘nalishlardan biri, xuddi turli tillar misolidagi kabi frazeologik birliklarni sistemalashtirish sanaladi. “Sistemalashtirish til tadqiqotlarining ikkinchi jarayoni bo‘lib, unda sintagmatika orqali olingan ajralmas elementlar tasniflanadi va paradigmatic bo‘laklar, ya‘ni birliklar orasidagi munosabatlar aniqlanadi”. [1, 198]. Sistemalashtirish jarayonida frazeologik birliklar va frazeologik chatishmalar sintetik frazeologik birliklar (bir butun ma‘no anglatuvchi) qatoriga kiritiladi. Frazeologik birikma va frazeologik ifodalar esa analitik frazeologik birliklar (tarkibiy qismlar ma‘nosidan tashkil topgan) turkumiga mansub sanaladi [6, 84].

Frazeologiya sohasida katta amaliy va nazariy tadqiqotlar olib borgan rus olimi A.V. Kuninning tasnificha frazeologiya, umumiy planda, uchta bo‘limdan iborat bo‘ladi: idiomalar (xususan frazeologizmlar yoki idiomalar), idiofrazematika (idiofrazematik birliklar yoki ideofrazematizmlar) hamda frazeomatikalar (frazeomatik birliklar yoki idiomatik xususiyatga ega bo‘lmagan frazeologizmlar) [2, 26 – 27]. Frazeologizmlar o‘ziga xos tabiatga ega bo‘lgan belgilar sifatida tan olinadi. Jumladan, til va nutqda ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini aniqlash, hamda





boshqa til birliklari va belgilaridan farqlanuvchi jihatlarini ko'rsatib bera oladigan xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi. Mazkur xususiyatlarni farqlash badiiy tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. V.N. Teliyaning ta'kidlashicha, frazeologizm tadqiqotida muhim rol o'ynaydigan ob'ektiv va sub'ektiv faktorlar mavjud bo'lib, ushbu jarayon kommunikativ vaziyatlarni, ifodalanishda nominativ vazifani bajarishi, kognitiv jarayonlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik, nutqning ijtimoiy sharoitini anglash, kommunikantlarning statusini belgilovchi jihatlar sanaladi [3, 55 – 56]. Tillararo muloqatning bir ko'rinishi sifatida tarjima jarayoni ham asl nusxa va tarjima orasidagi qonuniyatlarni kuzatadigan, ilmiy asoslarga tayanilgan holda tarjimaning xususiy holatlarini kuzatish natijasida olinadigan xulosalar va bevosita tarjima amaliyotini yuzaga kelishiga imkoniyat tug'diradi [4; 17-28].

Bu esa, tarjimaga oid ma'lum masalalarni hal qilishda kerakli vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ingliz va o'zbek tillari chog'ishtirilganda ingliz tili ob'ekt sifatida qaralsa, o'zbek tili metatil sanaladi. Bunday chog'ishtirilishda ingliz tilida ifodalanadigan matn mazmuni tasviriy ob'ekt vazifasini o'taydi. Chog'ishtirilish jarayonida ob'ekt til mavjud bo'lgan til birliklari tabiati e'tiborga olinadi. Xususan, tarjima uchun ob'ekt tilda uchragan barcha birliklarning lingvomadaniy jihatlarini ham e'tiborga olinishi talab qilinadi. Turli tillarda mavjud bo'lgan voqelikning aks etishini universal xususiyati tarjimaning asosini tashkil etadi. Bu esa milliy konseptlarning umumiylik jihatlariga asoslanadi. Bu kabi yondashuv tarjimadagi matnni tushunish va anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tillarda to'liq yoki qisman assimetriyalarning bir-biriga mos kelmasligini ham tan olish kerak. Bu kabi hodisaning tarjimadagi asosi tillar orasidagi assimetriyaning mavjudligi hisoblanadi. Bu kabi yo'nalishga oid tushinchalarni Vilgelm fon Gumboldt g'oyalarining tarafdori bo'lgan Anna Vejbitskayaning "radikal unversializm" pozitsiyasi orqali olish mumkin. Mazkur nazariyaga ko'ra, "birinchidan, turli tillarning semantik sistemasida mavjud bo'lgan madaniy o'ziga xoslik, lisoniy jihatdan uchraydigan kam uchrash hollari tan olinadi, ikkinchida esa, leksik birliklarga xos bo'lgan unversaliyalar tilning amaldagi qo'llanilishida absolyut ekvivalent ekanligini anglatmaydi [5, 17].

Badiiy matn tadqiqoti zamonaviy lingvistikada kognitiv (qadriyatlarga yo'naltirilgan til materiallari, shaxsning aksiologik paradigmada shakllanishi), pragmatik (emotiv, baholash, kommunikativ vaziyat, shaxslararo munosabat, xususiy





intensiya) kabi til materiallariga e'tibor qaratilmoqda. Bu kabi yondashuv nutqiy vaziyatda ishtirok etuvchilarning psixologik xususiyatlari, muloqot jarayonining borishi, muloqot jarayonida qo'llaniladigan til materiallarini lisoniy nuqtai nazardan modellashtirishni ko'zda tutadi. Jumladan, badiiy matnda qo'llaniladigan frazeologik birlik tahlili keltirib o'tilgan lingvistik sathlarning har biri doirasida uchrashi mumkin. Xususan, tarjimada frazeologik birliklarning qaysi lingvistik hodisa doirasida baholanishini belgilash ham ma'lum ma'noda tahlil jarayonida qo'l kelishi mumkin. Frazeologik birliklarning kognitiv, pragmatik, lingvopsixologik sathlardagi tadqiqi ushbu sohani yangicha talqinda keyingi tadqiqotlar imkoniyati keng ekanligidan dalolat beradi. Bunda frazeologik birliklar insonning mental maydonidagi konseptual bo'laklarning verbal ifodasi sifatida hamda ijtimoiy muhitdagi kommunikativ jarayonning emotsional, ifodaviy, intensional va shu kabi jarayonlarning leksik shakldagi vositalaridan biri sanaladi.

Badiiy matn, ma'lum ma'noda, murakkab intensiyalar strukturasidan iborat bo'lib, pragmatik tadqiqotlarning o'rganish ob'ektiga kiradi. Albatta, badiiy matnda qo'llaniladigan frazeologik birliklar esa, matnning emotiv-baholovchi, lingvomadaniy, ijtimoiy xususiyatlarini to'liqroq namoyon etish vazifasini bajaruvchi til vositalarining bir qismi hisoblanadi. Badiiy matn doirasida qo'llaniladigan frazeologik birliklar o'z vazifasiga ko'ra turli funksiyalarni bajarishi, kommunikantlarning ijtimoiy statusini belgilash uchun xizmat qiladigan, matnning obrazli qilib ko'rsatadigan vositadir. Ingliz tilidagi adverbialli fe'l (frazali fe'llar, murakkab fe'l birikmalari) ma'nolarining shakllanish asoslarini yoritishda ularning zamonaviy ingliz tili leksik birliklari tuzumida tutgan o'rnini aniqlash muhim sanaladi. Mazkur birikmalarda ikkinchi elementning o'rnini o'ziga xos xarakterga ega ekanligi bilan belgilanadi. Ushbu birikmalardagi ikkinchi elementning o'rnini belgilash borasida bahs munozaralar haligacha to'xtagan emas. Ba'zi olimlarning fikricha [6, 45-55], ular so'z yasovchi morfemalar qatoriga kiritiladi va erkin sintaktik vazifa bajaruvchi sifatida morfologik sathda (qo'shma so'zning bir bo'laki sifatida) qaraladi. Adverbialli fe'l birikmalarining ikkinchi elementini so'z o'zgartiruvchi sifatida ko'rilishi esa frazali fe'llarni sintaksis sathida (so'z birikmasi sifatida) talqin etilishiga ham sabab bo'lmoqda. L. Tenerning yozishicha, gap (fraz) dagi protsess fe'l vositasida, ishtirok etuvchilar mazkur fe'lga tobe otlar yoki otlashgan so'z ham birikmalar yordamida, vaziyat esa ravishlar yoki ravish rolidagi so'z ham birikmalar vositasida ifodalanadi. Bu gap (fraz) bo'laklarini





shu gap (fraza) tarkibidagi fe'l bir butunlikka uyushtiradi, birlashtiradi. Gap (fraza)da ishtirok etuvchilar va holatlarni ifodalovchi so'zlar, traditsion grammatika termini bilan aytganda, mazkur gap (fraza) tarkibidagi fe'l tomonidan boshqariladi. Demak, bu tipdagi gap (fraza)larning semantik yadrosi, bir butunlikka uyushtiruvchi markazi shu gap tarkibidagi fe'ldan tashkil topadi [7, 69].

Ingliz tili frazeologik tadqiqotlariga umrini bag'ishagan rus tilshunosi A.V. Kunin tomonidan ishlab chiqilgan frazeologik birliklar tasnifining tarkibiy belgilariga ko'ra bu kabi (fe'l va adverb birikmasi) birikmalar bir darajali frazeologik birliklar sifatida qaraladi. Bunga ko'ra, ushbu birikmalarning biri mustaqil ma'noli va ikkinchisi mustaqil ma'noga ega bo'lmagan leksema yoki bitta mustaqil ma'noli va ikki yoki uchta mustaqil ma'noga ega bo'lmagan leksemalardan iborat, deb qaraydi [8, 228]. Bu kabi frazeologik birikmalarni A.V. Kunin frazeologik birikmalar xususiyatiga ega bo'lgan ibora va shuningdek murakkab so'zning bir bo'lagi, degan fikrni bildiradi. Fe'lli frazeologik birliklarning munosabat xarakteristikasi quyidagi belgilarni aks ettiradi: 1) dinamiklik va stativlik (to talk through one's hat (inf.) : It is Greek to me); 2) sub'ektning yo'nalishi va sub'ektning ob'ekt tomon yo'nalishi (to go West : to make fun of sb); 3) chegaralanganlik va chegaralanmaganlik (bu holat ko'proq fe'lning aspekt ma'nosidan kelib chiqqan holda belgilanadi) (to come into one's head : to make light of sb (or sth); 4) harakatning boshlanish, davomiylik va tugallanish fazasi (to burst into tears; to go on reading; to come to an end); 5) harakat yoki holatning vaqti (to be at the beck and call of sb. – to always be ready to do what someone wants); 6) harakat yoki holatning makoni (to make way (for) – to allow (someone or sth) to pass or enter an empty place_or position, by moving aside or being moved aside); 7) bir yoki ko'p karralik (to give a points to knock oneself down and out). Umumiy planda fe'lli frazeologik birliklarning harakat yoki holati ikkitadan to'rttagacha bo'lgan belgilarda o'zgarishi mumkin.

Fe'lli frazeologik birikmalarning tasviriy xususiyatlari quyidagi belgilarni aks ettiradi: 1) usul, bunda asosiy tasviriy ifoda ravish yoki ot semantikasiga tegishli bo'lib, fe'l bilan birikish orqali tasviriy ifada yuzaga keladi (to hold one's breath – to wait anxiously for sth); 2) intensivlik (to do one's best – to try as hard as one can to do sth.); 3) baholash (to get over – to successfully deal with problems, difficulties); 4) sabab (to keep an eye on sb. – to be carefully watching everything that sb. does, especially, because you do not trust them to do things properly); 5) maqsad (to take steps – to act





(in order to achieve a desired result); 6) kauzativlik (to break sb's heart – (cause to) feel considerable grief, mental anguish, disappointment, etc.); 7) sub'ekt bahosi (to pull oneself together – to force oneself to stop behaving in a nervous, frightened, or disorganized way); 8) ob'ektga munosabat (to give the lie to sth – to show that sth is untrue); 9) vaziyatga taaluqli munosabat (to have an affair (with) – a secret sexual relationship between two people, when at least one of them is married to sb else); 10) stilistik munosabat (to have the way of it – coll.) to be the winner or the person with the most gain or benefit in (an argument, fight, agreement, etc.) Fe'lli frazeologik birliklarning harakat yoki holati bittadan to'rttagacha bo'lgan belgilarda o'zgarishi mumkin. Ingliz tilida fe'ning ravish bilan birikishi orqali yasaladigan frazeologik birikmalarni quyidagi modellarda berish mumkin: 1) ravish yordamida. – with a heavy heart – (a cliché) sadly (mazkur frazeologik birikmalar referent xususiyat, sub'ekt va ob'ekt harakatining tasnifiy xususiyatlari, tasviriy xarakteristika, stilistik munosabat ma'nolarini anlatadi); 2) ade'ektivlik. – sick and tired – disgusted and annoyed with someone or sth (mazkur frazeologik birikmalar referent xususiyat, sub'ekt va ob'ekt harakatining tasnifiy xususiyatlari, tasviriy xarakteristika, ob'ekt munosabati); 3) substantiv. – (mazkur frazeologik birikmalar referent xususiyat, sub'ekt va ob'ekt munosabati, baholash kabilar) (a heart of stone – furious heart).

Badiiy matndagi frazeologik birikmalar (asosan fe'lli frazeologik birikmalar) funksional-semantik maydonda, sub'ektning modalligi kabi sathlarda keng tahlil etiladi. Ularning mazkur sathlardagi tahlili fe'lli frazeologik birikmalarining semantik ma'nolarini to'liqroq yoritish uchun xizmat qiladi. Umuman olganda frazeologik birikmalar fe'lli, adektivli, adverbialli, sifatli, substantivli, undov so'zi qatnashadigan turlarga ajratiladi. Mazkur birikmali frazeologik birikmalar emotiv, ekspressiv, baholavchi, munosabat, intensivlikni bildiruvchi kabi komponentlarda ishtirok etadi. Masalan, baholavchi – to talk through one's hat – to say something stupid; skin and bone – extremely thin in a way that is unattractive and unhealthy; emotivli komponent – to burst into tears – to begin, suddenly or/and violently, to cry; good God! – (spoken) used to add force to what you are saying, when you are surprised, annoyed, or amused; intensivlikni bildiruvchi komponent – to raise Cain (hell or the devil) – to complain, protest, exert one's authority, etc. angrily or violently; by no means – absolutely no; certainly not. Sub'ekt va shaxslararo munosabat ma'nosini anglatuvchi frazeologik birliklarning ko'pchiligida stilistik bo'yoqdorlikni uchratish mumkin. Masalan: to get





(or put) sb's back up – (informal) offend sb, make him angry (usu. by clumsy or insensitive conduct); for sure – (inf. or slang) certainly; surely; as good as gold – (cliché) genuine; authentic. Frazeologiya til va madaniyat bilan o'zaro bog'langan va birga rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Bu sohada ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va hali hanuz tadqiqotlar davom etayotgan bo'lishiga qaramay, muammoli vaziyatlar uchrab turibdi. Ayniqsa, ularning tarjimalari bilan bog'liq muammolar ko'plab bahs-munozaralarga olib kelmoqda. Boshqa birliklarga qaraganda, frazeologik birliklar tarjimasini qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Tarjima ikki til o'rtasida ko'prikdir. Ana shu ko'priknin quruvchilari esa albatta tarjimonlardir. Ko'priknin qay darajada puxta va mustahkam ekanligi albatta ularga bog'liq. Xuddi shunday mazmunning tushunarli va ravon bo'lishi albatta tarjimonlarga bog'liq hisoblanadi. Yuqorida ayrib o'tganimizdek, frazeologik birliklar tarjimasini albatta ko'plab muammoli va qiyin vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Badiiy asarlarni tarjima qilish ekanmiz, tarjima qilishdan avval har ikki tilni ham mukammal darajada bilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. - М.: Изд-во «Языки русской культуры», 1999.
2. Аничков И.Е. Адвербиальные послелогии в современном английском языке // Ученые записки Пятигорского гос. пед. ин-та. Том 24. - Пятигорск, 1961.
3. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: Избр. Тр. - М.: Наука, 1986.
4. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики -М.: "Прогресс", 1977.
5. Кунин. А.Б Теория фразеологии Шарля Балли. Иностранние языки в школе 1966.
6. Гафуров И. Таржима назарияси. -Тошкент.: Тафаккур Бўстони, 2012.
7. Гафуров. И. Таржимонлик мутахассислигига кириш. Тошкент.:Меҳридаё, 2008.
8. Кунин. А.Б Теория фразеологии Шарля Балли. Иностранние языки в школе 1966.

